

**OLIY TA'LIM MUASSASALARINING KORRUPSIYAGA QARSHI
KURASHISH "KOMPLAYENS-NAZORAT" TIZIMINI BOSHQARISH
BO'LIMLARI XODIMLARI UCHUN TASHKIL ETILADIGAN QISQA
MUDDATLI MAXSUS O'QUV KURSINING**

DASTURI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

**OLIY TA’LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL
ETISH BOSH ILMIY-METODIK MARKAZI**

Tuzuvchilar:	B.Ismailov – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti Xalqaro munosabatlar sohasidagi qonunchilik sho‘basi rahbari, yu.f.d., professor
	I.Isomov – Bosh ilmiy-metodik markaz direktor o‘rinbosari
	G.Rasulova – O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi doktoranti
Taqrizchi:	V.Topildiyev – O‘zbekiston Milliy universiteti o‘quvslubiy boshqarma boshlig‘i, yu.f.d., professor

KIRISH

So'nggi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida muhim tashkiliy-huquqiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Aholining huquqiy ongi va madaniyatini oshirishga, jamiyatda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirishga yo'naltirilgan tizimli choralar ko'rilmoqda.

Korrupsiyadan holi jamiyat va davlatni yaratish mamlakat taraqqiyotining mustahkam kafolati bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018 yil 7 dekabr kuni Konstitutsiyamizning 26 yilligiga bag'ishlangan marosimda so'zlagan nutqlarida "Korrupsiya bilan hech qachon maqsadimizga erisha olmaymiz" deb ta'kidlagan edilar.

Davlatimiz rahbari tomonidan oliy ta'lim tizimiga qaratilayotgan alohida e'tibor va g'amxo'rliklarga qaramasdan, **sohada** korrupsiya holatlari, jiddiy **muammo va nuqsonlar** hamon saqlanib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi va "Ta'lim to'g'risida"gi qonunlarida ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta'lim va tarbiya belgilangan davlat ta'lim standartlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning bugungi sharoitida korrupsiyaga qarshi murosasiz kurash davlat va jamiyat oldidagi muhim vazifalardan biri sanaladi. Uni amalga oshirish mustahkam huquqiy asos va samarali mexanizm joriy etilishini talab qiladi.

Shu munosabat bilan, 2017-yil 3-yanvarda O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-sonli Qonuni qabul qilindi. Mazkur Qonunning 16-moddasida davlat organlari va boshqa tashkilotlar korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga doir huquqiy tarbiya va ta'limni, ilmiy-amaliy tadbirlarni tashkil etish, o'quv-uslubiy va ilmiy adabiyotlarni ishlab chiqish yo'li bilan zarur chora-tadbirlar ko'rishi lozimligi belgilangan.

Oliy ta'lim sohasida korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash hamda bartaraf qilishga qaratilgan ishlar hamda amalga oshirish mexanizmlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5729-son Farmoni bilan tasdiqlangan oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida "Korrupsiyasiz soha" loyihasini amalga oshirish belgilab olindi. Ushbu loyiha doirasida oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida izchil va maqsadli ishlar yo'lga qo'yildi.

O'quv kursi dasturi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6257-son Farmoni bilan tasdiqlangan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2021-2022 yillarga mo'ljallangan davlat dasturi, 2021-yil 6-iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar

to'g'risida"gi PQ-5177-son Qarori, 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni, "Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2022-yil 11-maydagi PQ-240-son Qarori, "Jinoyatlarni tergov qilish sohasida malakali kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to'g'risida"gi 2022-yil 28-noyabrdagi PF-257-son Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda "Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 829-son qarorida belgilangan ustuvor vazifalar va mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u oliy ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatib kelayotgan Korrupsiyaga qarshi kurashish "komplayens-nazorat" tizimini boshqarish bo'limi xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to'qnashuvi va odob-axloq qoidalari bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirishni nazarda tutadi.

O'quv kursi predmeti oliy ta'lim muassasalari korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari mas'ul xodimlari tomonidan faoliyatni amalga oshirish jarayonida qat'iy rioya etilishi lozim bo'lgan fuqarolarning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, inson va uning sha'nini faqat qonunga rioya etgan holda huquqiy himoyasini ta'minlash, davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni mustahkamlash, halollik, kasb odobnomalari talablari mohiyatini to'liq anglash va ularga vijdonan amal qilinishini ta'minlashga yo'naltirilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, uning hududiy boshqarmalari, bo'ysunuvchi markazlari va barcha o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim muassasalarining xodimlari hamda jamiyat a'zolari o'rtasida antikorrupsion madaniyat darajasini oshirish, shuningdek vazirlik tizimi xodimlari tomonidan xizmat vazifalarini bajarish jarayonida korrupsion xatti-harakatlar sodir etilishiga yo'l qo'ymaslik va uning oldini olishga qaratilgan.

Kursning maqsadi va vazifalari

Kursning maqsadi oliy ta'lim tizimida korrupsiya va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashish, xodimlar tomonidan odob-axloq qoidalarini to'liq anglash va unga halollik, poklik asosida vijdonan amal qilish, ta'lim jarayoni shaffofligi va ochiqligini ta'minlash, manfaatlar to'qnashuvini bartaraf qilish, korrupsiyaga qarshi kurashish ichki tizimining huquqiy asoslarini o'zlashtirish hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlar darajasini pasaytirish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashga qaratilgan.

Kursning vazifalari:

- oliy ta'lim tizimida korrupsiya va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashish;

- xodimlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki hujjatlar talablarini to'liq va har tomonlama o'zlashtirish hamda ularga rioya etish;

- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga yo'l qo'ymaslik va o'z vaqtida aniqlash, ularni keltirib chiqaruvchi sabab va sharoitlarni, oqibatlarini bartaraf etish, egallab turgan lavozimidan qat'iy nazar, tizimning barcha xodimlari tomonidan korrupsion harakatlar sodir etganlik uchun javobgarlik muqarrarligi prinsipiga amal qilishini ta'minlash;

- korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari samarali faoliyatini tashkil etish,

- korrupsiyaga qarshi kurashish ichki tizimning huquqiy asoslarini shakllantirishda xalqaro tajribadan samarali foydalanish;

- odob-axloq kodeksi hamda ichki mehnat tartibi qoidalarga rioya etish;

- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning o'z vaqtida oldi olinishini, aniqlanishini va ularga chek qo'yilishini ta'minlashga, ularning oqibatlarini, shuningdek ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalarga qo'yiladigan talablar

Tinglovchi:

- korrupsiyaga qarshi kurash borasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari hamda "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni talablaridan xabardor bo'lish;

- oliy ta'lim tizimida korrupsiya va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashish ichki tizimining asosiy vazifalari, mazmun-mohiyati, yuzaga kelish sabablari, ijtimoiy-huquqiy omillarini;

- ta'lim jarayonining shaffofligi va ochiqligini ta'minlash uchun amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni tashkil qilishni muvofiqlashtiruvchi ichki meyoriy hujjatlarning talablarini;

- korrupsiyaviy harakatlarni yuzaga kelishini oldini olish uchun e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan sohalarni;

- korrupsiyaga qarshi kurashish ichki tizimining huquqiy asoslarini shakllantirishda xalqaro tajribalarni;

- manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan sohalar, ularni oldini olish va bartaraf etish uchun qo'llanilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlarning mazmun-mohiyatini;

- korrupsiyaga qarshi kurashish ichki tizimining huquqiy asoslari hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlar darajasini pasaytirish chora-tadbirlarini;

- oliy ta'lim tizimida manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilganlik holatlarining ko'rinishini;

- davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonida manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilishi va korrupsiyaviy harakatlar sodir etilishining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarning tafsilotlarini;

- xarid komissiyasining tarkibini tuzish bo'yicha talablarni;
- komissiya a'zolarining huquq va majburiyatlarini;
- kontragentlarni o'rganish va tekshirish tartib-qoidalarini;
- oliy ta'lim muassasalari talabalari va pedagog xodimlari orasida o'tkazilayotgan anonim so'rov tadbirlarini tashkil qilish, o'tkazish, natijalarini tahlil qilish va aniqlangan holatlar bo'yicha tegishli chora ko'rish tartib-qoidalarini;
- oliy ta'lim muassasalarida byudjet va byudjetdan tashqari mablag'larni maqsadsiz sarflanishini aniqlash usullari, ularni oldini olish va bartaraf etish uchun amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarning aniq tafsilotlarini *bilishi* kerak.

Tinglovchi:

- umume'tirof etilgan kasbiy odob-axloq normalariga rioya qilish;
- oliy ta'lim tizimida korrupsiya va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashish;
- ta'lim jarayonini shaffofligi va ochiqligini ta'minlash;
- oliy ta'lim tizimida manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilganlik holatlarini aniqlash va bartaraf etish;
- davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonida manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilishi va korrupsiyaviy harakatlarni sodir etilishini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- oliy ta'lim muassasalarida byudjet va byudjetdan tashqari mablag'larni maqsadsiz sarflanishini aniqlash usullarini qo'llash;
- xodimlarning ish haqi, ularga beriladigan mukofot pullari va boshqa to'lovlarni amalga oshirishda shubhali holatlarni aniqlash va nazoratini ta'minlash uchun "UzASBO" dasturi byudjet tashkilotlarining buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish uchun mo'ljallangan dastur asosida, barcha operatsiyalar, ko'rsatkichlar va me'yorlar, shu jumladan mehnatga soatbay haq to'lash miqdorlari amaldagi qonun hujjatlariga asosan o'z vaqtida kiritib borilishi amaliyotlarini kuzatib borish;
- xodimlarning ish haqi, ularga beriladigan mukofot pullari va boshqa to'lovlarni amalga oshirishda shubhali holatlarni aniqlash va nazoratini ta'minlash;
- korrupsiyaviy huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligini oshirish usul va vositalaridan samarali foydalanish *ko'nikmalariga* ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- korrupsiyaga qarshi preventiv ta'sir choralarini o'z vaqtida to'g'ri qo'llay bilishi;
- korrupsiyaviy huquqbuzarliklar profilaktikasi borasidagi usul va vositalardan amaliyotda keng foydalanish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish ichki tizimining huquqiy asoslarini shakllantirishda xalqaro tajribadan foydalanish;
- xavflar darajasini pasaytirish chora tadbirlarini amalga oshirish tartibiga rioya etish;
- fuqarolarni ishga qabul qilish jarayonlarini nazoratga olinishini ta'minlash;
- xarid komissiyasining tarkibini tuzish bo'yicha talablarga rioya etish;

- materiallarni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga taqdim qilish, xizmat tekshiruv materiallarni rasmiylashtirish, ularni saqlash va arxivlarga topshirish;
- davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonida manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiyaviy harakatlarni oldini olish;
- korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, ularni majburiy baholash, korrupsiya xavfi yuqori hisoblangan lavozimlar ro'yxatini shakllantirish;
- oliy ta'lim muassasalari mablag'larini maqsadsiz sarflanishini aniqlash, xodimlarning ish haqi va boshqa to'lovlarini kuzatib borish va nazoratini ta'minlash *malakalariga* ega bo'lishi zarur.

Tinglovchi:

- oliy ta'lim muassasalarida korrupsiyaviy jinoyatlar sodir etilishini oldini olish, xavf-xatarlarni aniqlash, ularni bartaraf etish, tegishli choralar qo'llanishini ta'minlash;
- korrupsiyaga qarshi kurashish huquqiy asoslarini shakllantirishda xalqaro tajribalar ahamiyatini tahlil qilish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish ichki tizimining huquqiy asoslarini o'zlashtirish hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlar darajasini pasaytirish;
- Odob-axloq kodeksi hamda ichki mehnat tartibi qoidalariga rioya etmaslik holatlari yuzasidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish;
- kasb odobnomasi talablarini chuqur anglash va unga og'ishmay rioya qilish;
- xizmat o'tash davrida manfaatlar to'qnashuvini va korrupsiyaning turli ko'rinishlarini bartaraf qilish usul va vositalarini qo'llash *kompetensiyalariga* ega bo'lishi lozim.

Maxsus o'quv kursi hajmi

Maxsus o'quv kursi hajmi 36 akademik soatni tashkil etadi. Nazariy mashg'ulotlar 28 soat, amaliy mashg'ulotlar 8 soatdan iborat.

Maxsus o'quv kursini yakunlagan va test sinovlarini muvaffaqiyatli topshirgan tinglovchilarga sertifikat beriladi.

O'QUV KURSI BO'YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

№	Modul mavzulari	Auditoriya soati	Jumladan	
			Nazariy	Amaliy
1.	Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari va ularni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari.	2	2	
2.	Oliy ta'lim tizimida "Korrupsiyasiz soha" loyahasini amalga oshirishning ahamiyati: natijalar va muammolar.	2	2	

3.	Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining vazifalari va huquqiy omillari.	2	2	
4.	Ta'lim jarayonining shaffofligi va ochiqligini ta'minlashga oid choralar.	4	2	2
5.	Korrupsiyaga qarshi kurashish ichki tizimining huquqiy asoslari hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlar darajasini pasaytirishning chora-tadbirlari.	6	6	
6.	Oliy ta'lim tizimida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va ularni bartaraf etish usullari.	6	4	2
7.	Davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonida manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiyaviy harakatlarning oldini olish.	6	4	2
8.	Ta'lim muassasalarida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olish va odob-axloq qoidalarini qo'llash.	2	2	
9.	Talabalar va pedagog xodimlar orasida so'rovnomalar o'tkazish va natijalarini tahlil qilish.	2	2	
10.	Ta'lim muassasasi mablag'larining maqsadsiz sarflanishini aniqlash, xodimlarning ish haqi va boshqa to'lovlarini kuzatib borish.	4	2	2
Jami		36	28	8

NAZARIY VA AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari va ularni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosati asosiy yo'nalishlarining mazmun-mohiyati, ahamiyati, jamiyat hayotida ularni amalga oshirish va korrupsiyaga qarshi kurashishning natijadorligini oshirish yuzasidan chora-tadbirlar.

2-mavzu: Oliy ta'lim tizimida "Korrupsiyasiz soha" loyihasini amalga oshirishning ahamiyati: natijalar va muammolar.

Oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan "Korrupsiyasiz soha" loyihasining asosiy yo'nalishlari, loyiha doirasida amalga oshiriladigan tadbirlar, ularning samaradorligini tahlil qilish, baholash va xulosa chiqarish, loyiha boshlanguniga qadar va undan keyingi natijalar, shuningdek yuzaga kelayotgan muammolar va ularni bartaraf etish usullari.

3-mavzu: Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining vazifalari va huquqiy omillari.

Oliy ta'lim tizimida korrupsiya va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashish ichki tizimining asosiy vazifalari, mazmun-mohiyati, yuzaga kelish sabablari, ijtimoiy-huquqiy omillari.

4-mavzu: Ta'lim jarayonining shaffofligi va ochiqligini ta'minlashga oid choralar.

Ta'lim jarayonini (*shu jumladan bitiruvchilarining yakuniy Davlat attestatsiyalari, bitiruv malakaviy ishlari, magistrlik dissertatsiyasi himoyalari*) shaffofligi va ochiqligini ta'minlash uchun amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni tashkil qilishni muvofiqlashtiruvchi ichki meyoriy hujjatlarning talablari, korrupsiyaviy harakatlarni yuzaga kelishini oldini olish uchun e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan sohalar, NEMIS platformasidagi amaliyotlarni nazoratini ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari.

5-mavzu: Korrupsiyaga qarshi kurashish ichki tizimining huquqiy asoslari hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlar darajasini pasaytirishning chora-tadbirlari.

Korrupsiyaga qarshi kurashish ichki tizimining huquqiy asoslarini shakllantirishda xalqaro tajribaning ahamiyati, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, ularni majburiy baholash, korrupsiya xavfi yuqori hisoblangan lavozimlar ro'yxatini shakllantirish, xavflar darajasini pasaytirish chora tadbirlarini amalga oshirish tartibi.

6-mavzu: Oliy ta'lim tizimida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va ularni bartaraf etish usullari.

Oliy ta'lim tizimida manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilganlik holatlarining ko'rinishi, manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan sohalar, ularni oldini olish va bartaraf etish uchun qo'llanilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlarning mazmun-mohiyati, fuqarolarni ishga qabul qilish jarayonlarini nazoratga olinishini ta'minlash (*nomzodlarni tekshirish tartibi*), ushbu sohada qo'llanilishi lozim bo'lgan xorij tajribasi.

7-mavzu: Davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonida manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiyaviy harakatlarning oldini olish.

Davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonida manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilishi va korrupsiyaviy harakatlarni sodir etilishini oldini olishga qaratilgan chora tadbirlarning tafsilotlari. Xarid Komissiyasining tarkibini tuzish bo'yicha talablar, Komissiya a'zolarining huquq va majburiyatlari. Kontragentlarni o'rganish va tekshirish tartib qoidalari.

8-mavzu: Ta'lim muassasalarida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olish va odob-axloq qoidalarini qo'llash.

Oliy ta'lim tizimida korrupsiya va unga oid huquqbuzarlik harakatlarini sodir etganlik, Odob-axloq kodeksi hamda ichki tartib qoidalariga rioya etmaslik holatlari yuzasidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish, materiallarni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga taqdim qilish tartibi, xizmat tekshiruvi materiallarini rasmiylashtirish, ularni saqlash va arxivlarga topshirish tartib-qoidalari.

9-mavzu: Talabalar va pedagog xodimlar orasida so‘rovnomalar o‘tkazish va natijalarini tahlil qilish.

OTM talabalari va pedagog-xodimlari orasida o‘tkazilayotgan anonim so‘rov tadbirlarini tashkil qilish, o‘tkazish, natijalarini tahlil qilish va aniqlangan holatlar bo‘yicha tegishli choralar ko‘rish tartib qoidalari, ushbu sohada yuzaga kelayotgan muammolar va noaniqliklar.

10-mavzu: Ta’lim muassasasi mablag‘larining maqsadsiz sarflanishini aniqlash, xodimlarning ish haqi va boshqa to‘lovlarni kuzatib borish.

OTMda budget va budgetdan tashqari jamg‘armalar mablag‘larini maqsadsiz sarflanishini aniqlash usullari, ularni oldini olish va bartaraf etish uchun amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlarning aniq tafsilotlari, xodimlarning ish haqi, ularga beriladigan mukofot pullari va boshqa to‘lovlarni amalga oshirishda shubhali holatlarni aniqlash va nazoratini ta‘minlash uchun UzASBO dasturiy mahsuldagi amaliyotlarni kuzatib borish imkoniyatlari.

O‘qitishda foydalaniladigan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari.

Maxsus o‘quv kursi nazariy va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Ma’ruza darslari oflayn ta’lim asosida **flipped classroom** (*teskari sinflar*) usulida tashkil etiladi. Ya’ni, bunda ma’ruzachilar tomonidan oldindan vodkastlar (qisqa video ma’ruzalar) taqdim qilinadi va keyin oflayn savol-javoblar bo‘lib o‘tadi. (*Teskari sinf – yangi o‘qitish metodi bo‘lib, unga ko‘ra tinglovchilar tomonidan yangi materialni asosiy o‘zlashtirish jarayoni uyda amalga oshiriladi va auditoriyadagi vaqtida topshiriqlar, mashqlar, laboratoriya va amaliy tadqiqotlar, moderatorning individual maslahatlari uchun ajratiladi*).

Amaliy mashg‘ulotlar oflayn ta’lim shaklida topshiriqlar berish va tinglovchilarning topshiriqlarni bajarishlarini ta‘minlashga qaratilgan videokonferensiya va auditoriyalarda maslahat shaklida amalga oshiriladi. O‘qitish jarayonida ta’limning aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, muammoli vaziyat, bahs-munozara, suhbat, muhokama, debat kabi zamonaviy ta’lim metodlaridan foydalaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Milliy normativ-huquqiy hujjatlar.

1. "Birlashgan Millatlar Tashkilotining korrupsiyaga qarshi Konvensiyasiga (Nyu-York, 2003 yil 31 oktabr) O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risida"gi 07.07.2008 yildagi O'RQ-158-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/1369505>
2. O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni O'RQ-371-son, 2014 yil 14 may. <https://lex.uz/docs/2387357>
3. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni 03.01.2017 yildagi O'RQ-419. <https://lex.uz/docs/3088008>
4. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020 yil 23 sentabr O'RQ-637. <https://lex.uz/docs/5013007>
5. O'zbekiston Respublikasining 18.11.2021 yildagi O'RQ-729-son "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 2021 yil 18 noyabrdagi Qonuni. <https://lex.uz/docs/5733432>
6. O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonuni. 2021 yil 02 apreldagi. O'RQ-682. <https://lex.uz/docs/5378966>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan «Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi.//Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 14 oktabrdagi "Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 595-sonli qarori, <https://lex.uz/ru/docs/6236838>
9. "O'zbekiston Respublikasi adliya organlari va muassasalari xodimlarining odob-axloq qoidalari" O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2020 yil 24 fevraldagi 43-um-son buyrug'iga 1-ilova. https://back.minjust.uz/media/document/c1e12fe4-fb96-484b-93e0-d19717bde2f4/odob_axloq.pdf
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 19 yanvardagi PQ-2733 Qarori, <https://lex.uz/docs/3098964>
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 01.05.2017 yildagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish tora-tadbirlari to'g'risida" 2017 yil 19 yanvardagi PQ-2733-son qarorini amalga ashirish chora-tadbirlari haqida"gi 250-sonli Qarori. <https://lex.uz/docs/3189363>
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" Farmoni 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947. <https://lex.uz/docs/3107036>
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni 8 sentabr 2017 yildagi PF-5185. <https://lex.uz/docs/3331174>
14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ yoki muassasalarning mansabdor shaxslari tomonidan chiqariladigan rasmiy ogohlantirish shaklini hamda uni chiqarish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2017 yil 7 fevraldagi 60-sonli Qarori <https://lex.uz/docs/3110039>
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni 2017 yil 21 fevral PF-4966 <https://lex.uz/docs/3121087>
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va Qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakili

institutini ta'sis etish to'g'risida"gi Farmoni,2017 yil 05 maydagi PF-5037.
<https://lex.uz/docs/3193118>

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori 20.04.2017 yil PQ-2909. <https://lex.uz/docs/3171590>

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni 2018 yil 22 yanvardagi PF-5308. <https://lex.uz/docs/3516847>

19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, 2018 yil 21 sentabrdagi PF-5544. <https://lex.uz/ru/docs/3913188?otherlang=1>

20. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari xodimlarining mehnatiga haq to'lash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori 05.04.2018 yildagi PQ-3655. <https://lex.uz/docs/3610711>

21. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qarori 05.06.2018 yildagi PQ-3775. <https://lex.uz/docs/3765586>

22. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida" Farmoni, 2019 yil 9 yanvardagi PF-5618. <https://lex.uz/docs/4149765>

23. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni 03.10.2019 yildagi PF-5843. <https://lex.uz/uz/docs/4549998>

24. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2019 yil 29 iyundagi Farmoni PF-6013. <https://lex.uz/docs/4875784>

25. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 2019 yil 29 iyundagi Qarori PQ-4761. <https://lex.uz/docs/4875782>

26. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qarori 16.01.2019 yil, PQ-4119. <https://lex.uz/docs/4164675>

27. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim muassasalariga test sinovlari orqali qabul qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qarori 14.05.2019 yildagi PQ-4319. <https://lex.uz/docs/4334802>

28. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni 11.07.2019 yildagi PF-5763. <https://lex.uz/docs/4415388>

29. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori 11.07.2019 yildagi PQ-4391. <https://lex.uz/docs/4415478>

30. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Farmoni 05.09.2019 yildagi PF-5812. <https://lex.uz/docs/4500926>

31. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" Farmoni 08.10.2019 yildagi PF-5847. <https://lex.uz/docs/4545884>

32. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori 03.12.2020 yildagi PQ-4910. <https://lex.uz/docs/5141332>

33. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda

bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6257-son Farmoni bilan tasdiqlangan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2021-2022 yillarga mo'ljallangan davlat dasturi. 2021 yil 6 iyul.

34. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori. 06.07.2021 yil. PQ-5177. <https://lex.uz/docs/5495533>

35. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtisodiyot tarmoqlari uchun muhandis kadrlarni tayyorlash tizimini innovatsiya va raqamlashtirish asosida tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori 10.12.2021 yil PQ-42. <https://lex.uz/docs/5767189>

36. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Olis hududlardagi budjet tashkilotlariga malakali mutaxassislarni jalb qilish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori 11.01.2021 yil, PQ-4940. <https://lex.uz/docs/5214633>

37. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>

38. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qarori 24.12.2021 yildagi PQ-60. <https://lex.uz/uz/docs/5793261>

39. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori 24.12.2021 yildagi PQ-61. <https://lex.uz/uz/docs/5793251>

40. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-81-son Qarori 14.01.2022 yil. <https://lex.uz/uz/docs/5819319>

41. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2022 yil 11 may, PQ-240-son Qarori. <https://lex.uz/uz/docs/6000285>

42. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jinoyatlarni tergov qilish sohasida malakali kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to'g'risida"gi 2022 yil 28 noyabrdagi PF-257-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/6299077>

43. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrda "Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 829-son Qarori. <https://lex.uz/docs/5193571>

44. O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining 08.09.2021 yildagi "Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi 3319-son Buyrug'i. <https://lex.uz/docs/5621185>

45. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2020 yil 27 oktabrdagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish va o'dob-axloq qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 564-sonli Buyrug'i. http://www.ipitvet.uz/media/korrupsiya_file/VB-564.pdf

46. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2020 yil 27 oktabrdagi "Xizmat jarayonida manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish hamda xodimlarning huquq va majburiyatlarini belgilash to'g'risida"gi 565-sonli Buyrug'i. <https://edu.uz/media/%D0%91%D1%83%D0%B9%D1%80%D1%83%D2%9B%20565%2027.10.2020%20%D0%91.%D2%9A%D0%BE%D0%B4%D0%B8%D1%80%D0%BE%D0%B2.pdf>

47. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021 yil 5 martdagi "Yashirin iqtisodiyot va korrupsiyaga qarshi kurashish hamda uning oldini olish bo'yicha 2020-2021 yillarga mo'ljallangan "Yo'l xaritasi"da belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlash to'g'risida"gi 120-sonli Buyrug'i.

<https://edu.uz/media/%D0%91%D1%83%D0%B9%D1%80%D1%83%D2%9B%20120%205.03>

[2021%20%D0%A5%D0%B0%D0%BA%D0%B8%D0%BC%D0%BE%D0%B2.pdf](#)

48. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2021 yil 5 martdagi 120-sonli Buyrug‘i 3-ilovasi. Uzbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining korrupsion va boshqa turdagi huquqbuzarliklar bo‘yicha xabar berish tartibi to‘g‘risida Nizom. [https://e.edu.uz/upload/Oliy va o%2%80%98rta maxsus ta%2%80%99lim vazirligining korrupsion va boshqa turdagi1.pdf](https://e.edu.uz/upload/Oliy_va_o%2%80%98rta_maxsus_ta%2%80%99lim_vazirligining_korrupsion_va_boshqa_turdagi1.pdf)

49. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2021 yil 26 avgustdagi “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tizimida Komplayens nazorat tizimini joriy etish va korrupsiyaga qarshi kurashishni takomillashtirish to‘g‘risida”gi 373-sonli Buyrug‘i. <https://edu.uz/media/baa9ee1b-c910-28f2-e360-3d4ec5de08d8.pdf>

50. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2021 yil 26 avgustdagi 373-sonli Buyrug‘i 1-ilovasi. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Nizomi. <https://edu.uz/media/0ebd9b5d-6bc5-d701-1ef1-800fd78d3fcf.pdf>

51. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2021 yil 26 avgustdagi 373-sonli Buyrug‘i 2-ilovasi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha koordinator”to‘g‘risidagi Nizomi. <https://edu.uz/media/3f60ffa8-aeac-b5b0-0307-bdbdd61f05a7.pdf>

52. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2021 yil 26 avgustdagi 373-sonli Buyrug‘i 3-ilovasi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tizimida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish”to‘g‘risidagi Nizomi. <https://edu.uz/media/9d9cce62-b4a4-1968-3b9d-6440274d750b.pdf>

53. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2021 yil 26 avgustdagi 373-sonli Buyrug‘i 4-ilovasi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tizimida korrupsion xavf-xatarlarni baholash Yo‘riqnomasi” <https://edu.uz/media/5fbf7084-7727-279c-2239-0e383fb564fd.pdf>

54. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2021 yil 22 oktabrdagi “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligida Komplayens nazorat tizimini joriy etish va korrupsiyaga qarshi kurashishni takomillashtirish to‘g‘risida”gi 443-sonli Buyrug‘i. <https://edu.uz/media/8e48e793-65b0-e90d-c0b7-30f99dff7be3.pdf>

55. O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Komplayens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi “Komplayens nazorat” tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha meyoriy-hujjatlar to‘plami. Toshkent-2022 yil. <https://e.edu.uz/upload/To%60plam.pdf>

2. Xalqaro normativ hujjatlar

1. Davlat mansabdor shaxslarining axloq-odobi to‘g‘risida Xalqaro Kodeks. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1996 yil 12 dekabrda qabul qilingan BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1979 yil 17 dekabrda qabul qilingan, Rezolyutsiya № 34/169.

2. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga Qarshi Konvensiyasi.//Nyu-York, 2003 yil 31 oktabr, BMT Bosh Assambleyasi. <https://lex.uz/docs/1461329>

3. Руководство ОЭСР по разрешению конфликтов интересов на государственной службе//OECD, June 2003.

4. Руководство для законодательных органов по осуществлению Конвенции Организации Объединенных Наций против коррупции Управление Организации Объединенных Наций по наркотикам и преступности отдел по вопросам международных договоров. 2006 год.

5. Specialised Anti-Corruption Institutions Review of Models (Russian version) //Mar 2009. Publisher: OECD Publishing.

6. Техническое руководство по осуществлению Конвенции Организации Объединенных Наций против коррупции //Вена. Управление Организации Объединенных Наций по наркотикам и преступности.2010 год.

7. Anti-corruption Reforms in Eastern Europe and Central AsiaProgress and Challenges, 2009-

2013 (Russian version) Sep 2013. Publisher:OECD Publishing. Language:Russian.

8. Asset Declarations for Public Officials A Tool to Prevent Corruption (Russian version) //Aug 2011.Publisher:OECD Publishing.

3. Rahbariy adabiyotlar

